**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "O'simlikshunoslik va yem-xashak etishtirish" kafedrasining professori I.T. Ergashevning "Genetika" fanidan "Uzoq shakllarni duragaylash" nomli mavzusi bo'yicha tayyorlangan ma'ruza materiallariga**

## TAQRIZ

Professor I.T. Ergashevning Agrotexnologiya fakulteti "60811200 –Qishloq xo'jalk ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 106 – guruh talabalariga "Genetika" fanidan ochiq ma'ruza dars o'tish uchun "Uzoq shakllami duragaylash" mavzusi bo'yicha yozgan ma'ruza materiali namunaviy dastur asosida tuzilgan, ishchi o'quv dastur bo'yicha yozilgan. Materialda rejada ko'rsatilgan topshiriqlar mazmuni bir-biriga bog'liq holda talabalar uchun engil tushunarlik darajada yoritilgan. Ma'ruza materialida uzoq shakllarni duragaylash to'g'risida, har xil tur va turkumga mansub o'simliklami chatishtirishdagi qiyinchiliklar, uzoq shakllami chatishmasligini engish usullari, duragay urug'larining unuvchanligining bulmasligi va pushtsizligini bartaraf qilish usullari va uzoq shakllami duragaylashdan qishloq xo'jalik amaliyotida foydalanishning muammolar va yutuqlar yoritilgan.

Ma'ruza darsini o'tishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Professor I.T.Ergashevning Agrotexnologiya fakulteti "60811200 –Qishloq xo'jalk ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 106 – guruh talabalariga "Genetika" fanidan ochiq ma'ruza dars o'tish uchun "Uzoqshakllami duragaylash" mavzusi buyicha yozgan ma'ruza materiali me'yoriy talablarga javob beradi deb hisoblayman va ijobiy baholayman.

**TDAU Samarqand filiali**
**Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha**
**direktor o'rinbosari, dotsent** **B.M.Eshonqulov**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “O‘simlikshunoslik va yem-xashak etishtirish” kafedrasining professori I.T. Ergashevning “Genetika” fanidan “Uzoq shakllarni duragaylash” nomli mavzusi bo‘yicha tayyorlangan ma’ruza materiallariga**

**T A Q R I Z**

Professor I.T. Ergashevning “Agrotexnologiya” fakulteti I-bosqich 106 guruh talabalariga “Genetika” fanidan ochiq ma’ruza dars o‘tish uchun “Uzoq shakllarni duragaylash” mavzusi buyicha yozgan ma’ruza materiallarini quyidagi tartibda: mavzuning nomlanishi, rejasi, darsda foydalaniladigan adabiyotlar, muhokama uchun savollar ko‘rsatilgan. Ma’ruza materiallarida genetika va seleksiyada uzoq shakllarni duragaylashning ahamiyati, bu sohadagi muammolar va yutuqlar yoritilgan. Jumladan, uzoq shakllarni duragaylashdagi genetik muommolar, ya’ni har xil tur va turkumga mansub o’simliklarning chatishmasligi, urug’larining unuvchan bo’lmasligi hamda duragay o’simliklarning pushsiz bo’lishi mumkinligi va bu muammolarni bartaraf etish usullari batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari, uzoq shakllarni duragaylashdan qishloq xo’jalik amaliyotida foydalanish imkoniyatlarining yoritib berilgani ma’ruza materiallarining qimmatini oshiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar qismida namunaviy dasturda ko‘rsatilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar kiritilgan.

Ma’ruza darsini o‘tishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Umuman olganda ochiq ma’ruza darsining metodik jixatdan yozilishi, mazmuni, hajmi, adabiyotlardan hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bugungi kunning talablariga javob beradi. Ma’ruza darsi materialini qoniqarli deb baholayman.

**Qishloq xo‘jalik fanlari**

**doktori, professor** **E. Umurzoqov**